

SHASHMAQOMGA OID MA'LUMOTLARNING SHARHI

Komila Bo'riyeva

Maqom xonandaligi kafedrasi dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15062232>

Annotatsiya. Mazkur maqolada internet tarmoqlarida maqom san'atiga oid ilmiy maqolalar va shashmaqomga oid ma'lumotlar sharhi haqida fikr yuritilgan. Maqola davomida internet tarmoqlaridagi Shashmaqom kuylari va video yozuvlariga ham alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: maqom san'atiga oid ilmiy maqolalar, Shashmaqom kuylari, Shashmaqomga oid ma'lumotlar.

REVIEW OF INFORMATION ON SHASHMAQOM

Abstract. This article discusses the review of scientific articles on the art of maqom and information on shashmaqom on the Internet. The article also specifically addresses Shashmaqom melodies and video recordings on the Internet.

Keywords: scientific articles on the art of maqom, Shashmaqom melodies, information on Shashmaqom.

ОБЗОР ИНФОРМАЦИИ О ШАШМАКОМЕ

Аннотация. В статье рассматривается обзор научных статей по искусству макома и информации о шашмакоме в Интернете. В статье также рассматриваются мелодии и видеозаписи Шашмакома в Интернете.

Ключевые слова: научные статьи по искусству макома, мелодии шашмакома, информация о шашмакоме.

Kirish

Shashmaqom bizga qadar, o'rta asrlarda O'n ikki maqom sifatida shakllanib kelgan. XIII asr Buxoro amrligida O'n ikki maqom faqatgina bayramlarda, katta tadbirlarda, saroylarda ijro etilgan. Shashmaqom O'n ikki maqom ko'rinishida XIX asr birinchi yarmiga qadar kelgan. Ko'plab san'atshunos olimlar, hofizlar, sozandalar tomonidan ijro etilgan kuylar mahsulidir. 1936-yil Toshkent Davlat Konservatoriyasi ochildi. 1972 yilda Sharqshunoslik fakulteti ichida "An'anaviy ijrochilik" kafedrasi ochildi, ushbu kafedra ichida yetuk mohir sozanda, chang va dutor ustasi Faxriddin Sodiqov boshchiligida maqomchilar ansambli tuzildi va shu yili Olmota shahrida bo'lib o'tgan III-Xalqaro simpoziumda "Shashmaqom" cholg'u yo'llaridan "Tarje' Buzruk" ko'plab olqishlarga sazovor bo'ldi.

XX asr ikkinchi yarmida Akademik Yunus Rajabiy sa'yi harakati bilan "Shashmaqom" to'plami kitob shakliga keltirilgan. Bugunga kelib esa, bu "Shashmaqom" haqida ko'plab

ma'lumotlar olishimiz mumkin. Xususan, Is'hoq Rajabovning ko'plab maqomga doir ilmiy maqolalari, ilmiy ishlari va kitoblari chop ettirilgan. Misol qilib aytadigan bo'lsak, "Maqomlar" kitobi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Is'hoq Rajabov Namudlarni ko'plab ko'rinishlarini kitob qilib chop ettirgan. Bugungi kunga kelib, ko'plab olimlarimiz maqomga doir ilmiy ma'ruzalar matni, hamda kitoblar yozishgan. Misol qilib aytadigan bo'lsak, Is'hoq Rajabov yozib qoldirgan "Maqomlar" qo'lyozmasi, O.Ibrohimov vaboshqa san'atshunos olimlar sa'yi harakati bilan kitob shakliga keltirilgan. R.Yunusov "Maqom asoslari", "Faxriddin Sodiqov" hayoti va ijodi kabi kitoblarini yozilishiga o'z hissasini qo'shgan.

Internet tarmoqlaridamaqomga oid ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, maqom oqshomlari, maqomchilar ansambllari hamda Shashmaqom haqida san'atshunos professorlarimiz tomonidan ko'plab ma'lumotlar muntazam yoritib kelinmoqda.

Shashmaqom (fors tilida — „shash“ olti va “maqom” lad) — o'zbek va tojik xalqlari musiqiy merosida markaziy o'rin tutgan maqomlar turkumi; parda, ohang , usul, shakl, uslub kabi vositalar bilan o'zaro uzviy bog'langan mumtoz kuy va ashulalar majmui. U muayyan shart-sharoitlarda musiqiy folklor hamda kasbiy musiqa yo'nalishlarida orttirilgan ko'p asrlik ilmiy-ijodiy tajriba hamda izlanishlar natijasida yuzaga kelgan. Shashmaqom milliy hamda mintaqaviy mumtoz musiqa an'alarining tarixan uzun taraqqiyot jarayoni natijasida bir qator bastakorlar avlodi san'atining qomusiy mahsulidir.

O'rta asr Yaqin va O'rta Sharq xalqlari musiqa ilmida maqom, asosan, parda tuzilmalari tushunchasini hamda ularga mos holda yaratilgan kuy va ashulalarni ifodalaydi. Maqomlar dastlabki davrda tarqoq shakllarda rivojlandi, XIII asrda esa Safiuddin al-Urmaviy ularni o'n ikki asosiy maqomdan iborat nazariy tizim shakliga keltirdi. XVII asrdan so'ng O'n ikki maqom tizimi inqirozga uchrab, uning negizida Sharq xalqlari orasida maqomlarning yangicha milliy va mahalliy shakllari vujudga kela boshladi. Xususan, XVIII asrning o'rtalarida O'rta Osiyoning yirik madaniy markazlaridan biri Buxoro shahrida saroy sozanda, xonanda va bastakorlari ijodiy ijrochilik faoliyatida Shashmaqom uzil-kesil shakllanib, Buxoro maqomlari, Buxoro Shashmaqomi nomlarida ham yuritildi. O'zbek maqom turlaridan Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, shuningdek, yovvoyi (erkin ko'rinishdagi) maqomlar, surnay, dutor yo'llari va boshqalar Shashmaqom ta'sirida rivojlandi. O'tgan zamon bastakorligida keng qo'llanilgan amal, kor, naqsh, peshrav, savt, tarona, qavl kabi janrlarning noyob namunalari Shashmaqom tarkibidabizgacha yetib keldi. Shashmaqom Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlaridan tashkil topgan bo'lib, jami 250 dan ortiq har xil shakldagi kuy va ashula namunalaridan iborat. Shu kunga qadar sozanda, hofiz va bastakorlar maqom yo'llarining ko'plab ijroviy talqinlarini kashf etdilar. Ovoz, tanbur, surnay, dutor va boshqa maqom yo'llarida bir qismli va turkumli asarlar ijod qildilar, ular asosida yangi kuy va ashulalar yaratdilar.

Shashmaqomni tashkil etgan maqomlarning har biri ikki — cholg'u (mushkilot) va ashula (nasr) yirik bo'limlaridan iborat.

Cholg'u bo'limlarida bir xil nom bilan ataluvchi cholg'u qismlari mavjud bo'lib, ohanglari o'zlari mansub bo'lgan maqom kuyiga xos, doira usullari esa bir xildir. Ulardan asosiylari Tasnif, Tarje', Gardun, Muhammas va Saqil deb ataladi. Bu qismlar maqom nomlariga qo'shib (masalan, Tasnifi Buzruk, Tarje' Dugoh, Garduni Segoh kabi), ayrimlari esa bastakorlar nomi bilan birga (masalan, Muhammasi Nasrullovi, Saqili Islimxon) ataladi.

Ba'zi cholg'u qismlari alohida nomga ega (masalan, Nag'mai Orazi Navo), Dugoh va Segohda esa maqom nomi bilan qo'shib aytiladi (masalan, Peshravi Dugoh, Samoi Dugoh, Hafifi Segoh). Shashmaqomning cholg'u qismlari xona va bozgo'y kuy tuzilmalaridan tashkil topadi. Bunda muntazam ravishda o'zgaruvchi xonalarning rivojlanishi uchun qo'llanadigan peshrav uslubi alohida ahamiyat kasb etadi. Tasnif, Tarje', Nag'mai Oraz, Samoi, Hafif kabi cholg'u qismlari bir-biriga o'xshash, kichik hajmli; Gardun va Peshrav birmuncha rivojlangan; Muhammas va Saqil yo'llari uzun va murakkab doira usullari negizida ijod etilgan.

Shashmaqom cholg'u yo'llarining ichki tuzilishi murakkab bo'lsada, o'zining ravon ohangdorligi va rang-barangligi bilan shu maqom kuy mavzulari bilan bevosita bog'liqdir. Bu asarlar teran falsafiy va turfa lirik kayfiyatlarni ifodalaydi, tinglovchilardan esa eshitish ko'nikmalariga ega bo'lishni talab etadi. Shashmaqom ashula bo'limining birinchi guruh sho'balar turkumli tarzda yaxlit ijro etilganida, Saraxbor bilan boshlanib, so'ng uning taronalari (6 tagacha) ijro etiladi. Taronalarning ohirgisi talqin doira usulida aytiladigan suporish qismi vositasi bilan Talqin sho'basiga silliq ulanib boradi. Talqin taronasi ijro etilib, nasr doira usulidagi suporish orqali Nasr sho'basi va uning taronalari o'tiladi (Nasr sho'ba namunalari bitta maqomda 2—3 tagacha yetadi). Oxirgi Nasr sho'basi, odatda, taronasiz o'qilib, bevosita Ufar ashula yo'llariga qo'shiladi va ohirgi suporish bilan turkum yakunlanadi.

Shashmaqom ashula bo'limining ikkinchi guruhidagi sho'balar o'zaro bog'lanmagan tarzda mustaqil ashula yo'llari hisoblanib, ularning har biri, asosan, 5 qismli turkumni tashkil etadi. Masalan, asosiy Savt yoki Mo'g'ulcha ashula yo'lidan keyin unga ushbu kuy mavzuning yangicha vaznusulli (Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufar) namunalari navbatma-navbat ulanadi. Shashmaqomni ilk bor V.A.Uspenskiy Ota Jalol va Ota G'iyos ijrolaridan hozirgi nota yozuviga olib nashr ettirdi ("Шашмаком, Шесть музыкальных поэм", Maqom. — Buxoro, 1924-yil). Mulla Bekjon Rahmon o'g'li va Muhammad Yusuf Devonzodaning "Xorazm musiqiy tarixchasi" (Maqom., 1925-yil), Fitratning "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" (Samarqand — Toshkent, 1927-yil) risolalari XX asr maqomshunosligining dastlabki namunalari bo'lib, qimmatli ma'lumotlarga ega. Shashmaqomni o'rganishga, ayniqsa, 1950-yillardan ko'proq ahamiyat berila boshlandi. I.Rajabov qalamiga mansub "Maqomlar masalasiga doir"

(Toshkent.1963yil) tadqiqoti o'zbek maqomshunosligi rivojlanishini yangi bosqichga ko'tardi. Tojikistonda B.Fayzullayev, Sh.Sohibov va F.Shahobovlar o'z ijrolarida notaga olib, V.M.Belyayev tahriri ostida Shashmaqomning 5 jildini nashr ettirdilar ("Shashmaqom", Maqom., 1950—1967 y). O'zbekistonda Shashmaqomni Yunus Rajabiy o'zi va boshqa sozanda va xonandalar ijrosidan yozib olib, ikki marta — "O'zbek xalq musiqasi" (V.jild.Toshkent, 1959) va "Shashmaqom" (I—VI jildlar, Toshkent., 1966—75) nomi bilan nashr ettirdi. Toshkent konservatoriyasida "Sharq musiqasi" kafedrasida (1972 yil), u asosida "Musiqiy sharqshunoslik" va "An'anaviy ijrochilik" (1992-yildan) kafedralari orqali Shashmaqomni ilmiy o'rganish va amaliy o'zlashtirish oliy, o'rta maxsus hamda boshlang'ich ta'lim bosqichlarida yo'lga qo'yildi. 1983-yildan boshlab maqom ijrochilarining respublika tanlovi (1991-yildan Yunus Rajabiy nomida) muntazam o'tkazib kelinmoqda. Olmota shahrida 1973- yili bo'lib o'tgan III "Osiyo minbari" xalqaro musiqashunoslikforumida Osiyo mamlakatlaridan yuborilgan 220 dan ortiq asardan 19 tasigayuvqoribahoberildi.

Bularorasida F.Sodiqov rahbarlik qilgan maqomchi talabalar ansambli ijro etgan "Tarje'Buzruk" ham bor. "Tarje'Buzruk" butun dunyo mamlakatlarining radio eshittirish korporatsiyalariga yuksak saviyadagi ijro sifatida yuborildi. Kezikelganda, qo'shiqchilik san'atida o'ziga xos o'rin egallagan O'zbekiston SSSR xalq artistlari Kommuna Ismoilova, Orif Alimahsumov, O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan artist Hadiya Yusupova, Buxoro musiqa bilim yurtining o'qituvchisi, birinchi respublika maqomchilar tanlovining g'olibi g'ijjakchi O'lmas Rasulov, Xorazm filarmoniyasining solisti, qo'shnaychi Yo'ldoshvoy Tojiyev, O'zbekiston radiosining solisti, Respublikada xizmatko'rsatgan artist Abduhoshim Ismoilov, changchi sozandalar, Tuyg'un Otaboyev, Abdurahmon Xoltojiyev kabi ajoyib shogirdlari ijodida ustozni ruhi, san'ati hamon yashayotganini ham alohida takidlash joizdir.¹

Maqom nima? Maqom arabcha «joy», «o'rin», «makon», musiqa tushunchasida esa cholg'u asboblarda tovush hosil etiladigan joy, ya'ni aslida parda ma'nosini bildiradi. Maqom muayyan pardadan boshlanadigan lad-tonallikni, hamda ularga mos keladigan kuy va ashulalar majmuasini ham ifodalaydi."G'iyosul-lug'at" qomusining muallifi G'iyosuddin o'tmish olimlarining mulohazalariga tayanib, maqom iborasini quyidagicha ta'riflaydi: "*Maqom – parda i surudrogo'yand*" – «*Maqom deb kuy va ashulalar pardasiga aytiladi*». Bu yerda kuy va ashulalar boshlanadigan parda hamda ular harakat etadigan lad tovush qatorlari hisobga olingan albatta.

Musiqaga doir eski manbalardan ma'lumki, maqomlarning tarixiy – nazariy va amaliy tomonlari bor. Ularning nazariy masalalari IX-XV asrlarda yashab ijod etgan Kindiy, Farobiy,

¹<https://uz.wikipedia.org/wiki/Shashmaqom> Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent. 1963yil.

Xorazmiy, Ibn Sino, Urmaviy, Sheroziy, Marog'iy, Jomiy va Husayniy kabi buyuk olimlarning risolalarida chuqur ilmiy asosda sharhlab berilgan.

«Maqomlar» risolasida maqomlar haqida uzoq yillar davomida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining eng muhim xulosalari o'z ifodasini topgan. Kitob orqali konservatoriyada ta'lim oluvchi talaba O'rta Osiyoda, xususan, O'zbekistonda musiqa madaniyati, ajdodlarimizning musiqaga bo'lgan munosabati, xalq kuylarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tarixi haqida chuqur ilmiy ma'lumotlar bilan tanishishi mumkin. Shuningdek, asrlar davomida ota-bobolarimizning quvonchli damlarida ham, turmush tashvishlaridan bezovta bo'lgan paytlarida ham ularga ruhiy quvvat bergan Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent, Samarqand-Buxoro maqom yo'llari yuzasidan zarur tushunchalar bayon etilganiga guvoh bo'lamiz. «Maqomlar»ning o'zbek musiqashunosligi sohasiga qo'shgan hissasini alohida moddalar bilan birma-bir ko'rsatish o'ta mushkul vazifa bo'lsa kerak. Chunki Is'hoq Rajabov o'z tadqiqoti bilan musiqashunosligimiz ko'lamini juda keng miqyosda tasavvur qilgan va har bir yo'nalishning shakllanishi, rivojlanish bosqichlarini chuqur ilmiy asosda o'rganish maqsadini o'z oldiga qo'ygan. Masalaning muhim tomoni shundaki, olim bu maqsadni yirik mutaxassis sifatida muvaffaqiyatli bajargan. Bizning nazarimizda, «Maqomlar»da ilgari surilgan muammolarni asosan quyidagicha ko'rsatish mumkin: «Maqomlar» muallifi avvalo, musiqa san'atining o'tmishda aniq fanlar silsilasida o'rganilganligiga urg'u beradi. An'anaga binoan musiqa matematika fanining tarkibiy qismi hisoblangan. Xususan, Farobiy, Ibn Sino o'zlarining falsafa, matematika, tibbiyot ilmiga bag'ishlangan asarlarining ayrim boblarini musiqaga bag'ishlaganlar. Bugungi kunda ham musiqa nazariyasi bilan shug'ullangan mutaxassis uchun tovushlar munosabatini tahlil etish matematik tenglamalar muammolarini hal etish darajasida murakkab ekanligi ma'lum.

Is'hoq Rajabov o'z tadqiqotida Ibn Sinoning matematika ilmini to'rtga bo'lganini qayd etadi. Ular — arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqa edi. O'ylaymizki, bu mulohazalar bilan olim risolaning dastlabki sahifalaridanoq musiqa ilmining oddiy tovushlar tizimidan iborat emasligini ta'kidlamochi, bu ilm bilan shug'ullanish mas'uliyati bilan tanishtirmochi edi.

O'rta Osiyoda musiqa xazinasining tarkibini maqomlar tashkil etgan. Dastavval (XIII-XV asrlarda) O'n ikki maqom tizimi hosil bo'lgan. Muallif har bir maqomning nomlanishi quyidagi tartibda ekanini ko'rsatadi. «Ular — Ushshoq, Navo, Busalik (Abu Salik), Rost, Husayniy, Hijoz, Rahoviy (Rahuviy), Zangula, Iroq, Isfaxon, Ziروفkand (yoki Kuchak) va Buzurg (Buzruk) maqomlaridir». Keyinchalik mazkur musiqa majmualaridan XIV-XIX asrlarga kelib Shashmaqom tizimi hosil bo'lgan.

Shashmaqomga Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlari kiradi». «Hozirda nashr etilgan kitoblarda maqomlarning cholg'u va ashula qismlari 208 dan 250 gacha boradi».

Ma'lum bo'ladiki, Is'hoq Rajabovning risolasi Sharq musiqa qadriyati mohiyatini ifodalovchi «Maqomlar»ning shakllanishidan tortib tarkibiy qismlarini tashkil qiluvchi sho'balarigacha sharhlab berish vazifasini to'la amalga oshira olgan.²

Internet tarmoqlarida Shashmaqom kuylari va video yozuvlari

- **Maqom ansambli** - DUGOH HUSAYNIY VII (ufari)
- **Maqomansambli** - DUGOH HUSAYNIY VI (soqiynoma)
- **Maqomansambli** - DUGOH HUSAYNIY V (qashqarcha)
- **Maqomansambli** - DUGOH HUSAYNIY IV (tarona)
- **Maqomansambli** - DUGOH HUSAYNIY III (tarona)
- **Maqomansambli** - DUGOH HUSAYNIY II (tarona)
- **Maqomansambli** - DUGOH HUSAYNIY I
- **Maqom ansambli** – Ufari IroqiBuxoro.

Farhod Qori Halimov

Buxoro to'liqini – Zebuniso g'azaliga G'oziy Muhammasi

Chapandozi Navo - N.Hiraviy g'azaliga Zohiriy muhammasi, Shashmaqom. (Navo).

Derlar odam boshi - Yodgor baxshi so'zi, bastakor B.Bakirov.

Dugohi Husayniy I- Turobiy so'zi, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridan.

Erdingiz - Navoiy g'azali, F.Halimov musiqasi.

Etmagin - Huvaydo g'azali, Xalq kuyi.

Madina- Shavkat g'azaliga Hislat muhammasi, F.Halimov musiqasi.

Muhammad Mustafo- Mashrab g'azali, F.Halimov musiqasi.

Munojot - O'zbek xalq kuyi.

Qashqarchai Savti Ushshoq- Ahmad Jomiy g'azali, Shashmaqom (Rost).

Rasululloh Keladir- Mashrab g'azali, Xalq kuyi.

Ushshoqi kalon - Hoji A.Abdurasulov musiqa

Visol istab - B.Berdiev so'zi, F.Halimov musiqasi.

²<https://uz.wikipedia.org/wiki/Shashmaqom> **Abdurahim Hamidov** ilmiy maqolasi.mtrk.uzdan.



Tolib Temirov (left) and Farhod Halimov

<https://www.classicmusic.uz>

MUMTOZ MUSIQA OQSHOMI



Navbatdagi "Mumtoz Musiqa Oqshomi" musiqiy kechamiz qahramoni: Ziyodjon Changiy– chang va qonun cholg'ularining mahoratli ijrochisi. O'zbekiston badiiy jamoalar dereksiyasi tasarrufidagi Maqomchilar ansamblining yetakchi sozandasi. Yigirmaga yaqin xorijiy davlatlarda konsert va festivallarda o'zbek mumtoz va xalq musiqalaridan ijro etib milliy musiqa rivojiga katta hissa qo'shgan.



Ilyos Arabov va Farangiz Ziyayeva - "Muhammasi Husayniy"

Xulosa

Bugungi kunga kelib Shashmaqom ustida olib borilayotgan ko'plab olimlarning izlanishlari natijasida Shashmaqom an'analari davom etib kelmoqda. Shu bois, Shashmaqom oqshomlari va boshqa turli tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Davlat Konservatoriyasida o'tkazilayotgan turli tadbirlar bugungi kun yoshlari ya'ni, bo'lajak maqomchilarda katta taassurotlar qoldirmoqda. Bu jarayonda bevosita maqomdon ustoz va professorlarning ijodiy yondashuvlari ijobiy natijalar bermoqda.

Internet tarmoqlaridagi ma'lumotlar va turli ilmiy maqolalarni joylashtirish orqali san'atshunos olimlarimiz maqom san'atiga o'zlarini katta hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, maqomga katta yo'lning ochilishi bugungi kun yoshlariga o'z iqtidorlarini namoyon etishlari uchun zamin yaratib kelmoqda.

REFERENCES

1. Rajabov I. "Maqomlar masalasiga doir". Toshkent. 1963-y.
2. Matyoqubov O. "Maqomot". Toshkent. 2004-y.
3. Abdurahim Hamidov ilmiy maqolasi. 13 mtrk.uzdan.
4. Matyoqubov O. "Og'zaki an'anadagi professional muzika asoslariga kirish". Toshkent. 1983-y. 7-bet.
5. Fitrat. "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi". Toshkent. Fanlar Akademiyasi, 1993-y. 39-40 bet.
6. Ibrohimov O. "Maqom va makon", Toshkent. 1996-y.
7. Ravshan Yunusov "O'zbek xalq musiqai ijodi" (ilmiy-uslubiy tavsiyalar) II-qism. Toshkent. 2000-y. 24-bet.
8. mtrk.uz.dan. "Mumtoz musiqa".